



- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

No8/2024

MAKTABGACHA VA **AKTAB TA'LIMI**

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
20-dekabr, 2024-yil.

BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari bo'yicha doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Ochilov S.R. – Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi metodisti

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Ochilov S.R. – Methodologist at the Department of Preschool and School Education of Kashkadarya Region

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y., №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №C-5669245 reyestr
raqami tartibi bo’yicha ro’yxatdan
o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

Ayollarda jarohatdan keyingi stress muammolarining o'rganilishi	8
<i>Alimova Umida Raxmatullayevna</i>	
Maktab iqtisodiy geografiya ta'limida muammoli ta'lim texnologiyalariga asoslangan topshiriqlardan foydalanish	11
<i>Abdullayev Madiyar Daniyar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini ma'naviy tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash	16
<i>Matchanov Bekpo'lat Omanbayevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fuqarolik huquqiy tarbiyani shakllantirishda samarali usullar va metodlardan foydalanishning ahamiyati	18
<i>Dauletbaeva Jadiraxan Aliy qizi</i>	
Talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ bilimlardan foydalanish metodikasi	22
<i>Raxmatov Uchkun Ergashevich</i>	
Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ayrim masalalari.....	26
<i>Muxamadiyev Xojakbar Aslitdinovich</i>	
Maktabgacha ta'limda tabiiy-tashlandiq materiallardan foydalanish metodikasi	29
<i>Maxmudova Nasiba Nurmuxammedovna</i>	
Futbol jamoalaridagi o'zaro munosabatlarda jamoani idrok qilishning o'ziga xosligi.....	33
<i>Majidov Jasur Baxtiyarovich</i>	
Tibbiy narkozdan keyingi parhez vaqtida hissiy irodaviy holatlarning psixologik xususiyatlari.....	38
<i>Karimova G. X.</i>	
Qoraqalpoq tili darslarida loyiha ishi orqali kitobxonlikni rivojlantirish	41
<i>Kazimbetova Ziyuar Maxsetbaevna</i>	
Oilaviy inqirozlar: umumiy ko'rinish va inqiroz fenomenologiyasi	44
<i>Umarova Navbahor Shokirovna</i>	
Oilaviy munosabatlar mustahkamligida tolerantlik jarayoni muhim omil sifatida	48
<i>Bozorova Namunaxon Davronbek qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida sodda gap sintaksisini nutqiy hamda lingvistik kompetensiya asosida o'rganish yo'llar	51
<i>Qurbonova Yulduz Qulmurot qizi</i>	
O'smirlarda ijtimoiy tolerantlikning psixologik xususiyatlari	54
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Xurshid Davronning "Shahidlar shohi" qissasida Shayx Najmiddin Kubro obrazi	57
<i>Abdulloyeva Farangis Azim qizi</i>	
Mahmud Qoshg'ariyning arealingvistika sohasiga qo'shgan hissasi.....	63
<i>Yoqubov Sodiqjon Latif o'g'li</i>	
Ijtimoiy axloq mezonlari hamda qadriyatlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish omillari.....	66
<i>Raupova Munira Murodovna</i>	
Jismoniy madaniyat o'qituvchilari faoliyatida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ri.....	70
<i>Axmedova Sarvinov Azatovna</i>	



Neyropedagogika pedagogikaning yangi tadqiqot obyekti sifatida.....	73
Xalmirzayev Mamirjon Axunjanovich	
Neyropedagogik texnologiyalar yordamida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning metodologik asoslari	77
Xalmirzayev Mamirjon Axunjanovich	
Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli	81
Xalmirzayev Mamirjon Axunjanovich	
Ko'zi ojiz bolalarni oilaviy-qo'shnihilik munosabatlariga tayyorlash – pedagogikaning zamonaviy muammosi sifatida	87
Jumaniyazova Zulfiya Aitbayevna	



KO'ZI OJIZ BOLALARNI OILAVIY-QO'SHNIHILIK MUNOSABATLARIGA TAYYORLASH – PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY MUAMMOSI SIFATIDA



Jumaniyazova Zulfiya Aitbayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun sifatli ta'lim-tarbiya tizimini yaratish, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish, xususan oila-qo'shnihilik munosabatlariga tayyorlash masalalariga e'tibor qaratish zarurligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, inklyuziv, nogironlik, nuqsonlik, maxsus pedagogika, tiflopedagogika, Brayl alifbosi.

Abstract: This article addresses the importance of creating a high-quality education and upbringing system for individuals with disabilities in our country, establishing conditions for the education of blind and visually impaired children, assisting their adaptation to society, and, in particular, preparing them for family and neighborhood relationships.

Key words: socialization, inclusion, disability, defectology, special education, typhlopedagogy, Braille alphabet.

Аннотация: В данной статье поднимается вопрос создания качественной системы образования и воспитания для лиц с ограниченными возможностями в нашей стране, создания условий для обучения незрячих и слабовидящих детей, содействия их адаптации к обществу, в частности подготовки к семейно-соседским отношениям.

Ключевые слова: социализация, инклюзия, инвалидность, дефектология, специальная педагогика, тифлопедагогика, шрифт Брайля.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, barcha jamiyatlarda jismoniy yoki psixik jihatdan imkoniyatlari cheklangan shaxslar sog'lom odamlar bilan birga yashab kelgan, va jamiyat taraqqiyoti ularga bo'lgan munosabatlarni ham o'zgartirgan. Jumladan, antik davrlarda, qadimgi grek madaniyatida "Inson xudolarga monand bo'lishi kerak" degan dunyoqarash nogironlarga nisbatan kamsitish va jamiyatdan ajratib qo'yilishiga olib kelgan. Qadimgi Rimda esa nogironlarning jang qilish imkoniyatlari cheklanganligi sababli, ularning fuqarolik huquqlarida ham cheklanishlar bo'lganligi tarixdan ma'lum.

Bugungi kunda esa jamiyat nogironlar haq-huquqlarini himoya qilish bilan birga, ularning ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlar yaratishga ustuvorlik bermoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 29-moddasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalanish, shuningdek, o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqi belgilab qo'yilgan ^[1].

Bu esa barcha toifadagi insonlarning jamiyatdagi o'rni, mavqeyi hamda yashash muhitida tenglikni ta'minlashga, barcha munosabatlarning tabaqalashtirilmagan holda amalga oshirilishiga ishora qiladi. Shu o'rinda, respublikamiz rahbari "Davlatimiz nogironligi bor bo'lgan insonlar uchun jamiyat hayotining barcha sohalarida va inson rivojlanishining har bir bosqichida teng imkoniyatlar yaratish orqali inklyuziv jamiyat tomon faollik bilan harakat qilmoqda. Ya'ni, inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar zahirida nogironligi bo'lgan insonlar – jamiyatning to'laqonli a'zolari, degan asosiy tamoyilga amal qilgan holda izchil ish olib bormoqdamiz", degan fikrlarini asos sifatida keltirish mumkin ^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-sonli "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan, ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rni yuzasidan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi, alohida ta'limga ehtiyojli bolalarni mos yo'nalishdagi islohotlarning izchilligi va tizimlilikini ta'minlash belgilangan ^[3]. Bu esa ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish, xususan, oila-qo'shni-chilik munosabatlariga tayyorlash masalalariga e'tibor qaratish zarurligini bildiradi.

Respublikamizda o'quvchilarning jismoniy imkoniyatidan kelib chiqqan holda, ularni sog'lom, ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalashda, ularning dunyoqarashini shakllantirish, sport turlariga qiziqtirish, shuningdek, mahallada qo'shni-chilik munosabatlarini barqarorlashtirishda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni tarbiyalashda alohida yondashuv va metodikalardan foydalanish taqozo etiladi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ham sog'lom tengdoshlari kabi jamiyat rivojiga hissa qo'shish imkoniyatlariga ega. Biroq bunday bolalar ushbu imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya sharoitida rivojlanishi lozim ^[4]. Ta'lim-tarbiya nafaqat ta'lim maskanlarida, balki oilaviy-qo'shni-chilik munosabatlariga ijobiy yondashuv orqali ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa ushbu toifadagi bolalarni komil inson etib tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.

Mazkur yondashuvlar inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda ta'lim muassasalarida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning yaqin qarindoshlariga ular bilan birga darslarda qatnashish imkoniyatlarini yaratish, oila-qo'shni-chilik asosida bolalar o'rtasida munosabatlarni yo'lga qo'yish, maxsus o'quv dasturlari asosida ko'zi ojiz bolalarni maktabga tayyorlash, "Nurli maskan" maktablari hududida "Yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maxsus maydonchalari"ni tashkil etish kabi bir qator amaliy vazifalarni yuklaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda aksariyat oilalarda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtai nazari bilan qarash ustuvorlik qilmoqda. Ushbu holat bolalarda sog'lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, o'z-o'ziga xizmat qilish va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi.

Bu borada Respublikamizda bolalarda uchraydigan, xususan, ko'rishdagi nuqsonlarning erta tashxisi va ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bolalarni muntazam ravishda tibbiy tekshiruvlardan va oftalmologlar tomonidan ommaviy profilaktik tekshiruvlardan o'tkazish, to'g'ri tibbiy aralashuv, maxsus korreksion va tarbiyaviy ta'sir qanchalik tez amalga oshirilsa, shunchalik samarali ekanligi isbotlangan.

2024-yil 13-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilgan ishlar va 2025-yilgi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishida imkoniyatlari cheklangan shaxslarga kasallik turidan kelib chiqib, aholiga uy sharoitida bajariladigan oddiy mashqlarni o'rgatish orqali minglab odamlarning sog'lig'ini tiklash mumkinligi ta'kidlandi. Shuningdek, mahalladagi ijtimoiy xodimlar tomonidan nogironligi bor insonlar uchun uy sharoitida bajariladigan mashqlar dasturi va sog'lom ovqatlanish menyusini eslatma sifatida tarqatish zarurligi qayd etildi. Ba'zi nogironligi bor insonlarda psixologik bosim sababli o'ziga bo'lgan ishonch yetishmasligi bois, shu yilning o'zida mehribonlik va bolalar uylaridan 300 nafar o'g'il-qizlar oilaviy muhitga qaytganligi ta'kidlandi. Yakunda reabilitatsiya ishlarining samarasi nogironligi bor insonlarning harakati, muloqoti va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishdagi o'zgarishlarga qarab baholanishi, shuningdek, ularning ijtimoiylashuviga bir qator imkoniyatlar yaratish belgilandi.

Shuningdek, kelajak avlodni tarbiyalashda oiladagi sog'lom muhitni asrash ma'nosida nafaqat oila a'zolarining o'zaro ijobiy his-tuyg'ularga asoslangan munosabati, balki oilaviy-qo'shni-chilik munosabatlariga to'sqinlik qiluvchi tarbiyaviy omillarga qarshi choralar ko'rish, mavjud muammolarni bartaraf etishda zamonaviy usullarni qo'llash zarurati ortmoqda.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim jarayonida umumdidaktik qoidalar va tamoyillardan tashqari xususiy yondashuvlar ham qo'llaniladi ^[5]. Bu yondashuvlar o'quvchilarga umumta'lim fanlarini o'zlashtirish imkoniyatini pasaytiruvchi ko'rish muammolarini nisbatan bartaraf etish usul va vositalarini o'z ichiga oladi. Maxsus ta'lim muassasalarida ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

L.S. Vigotskiyning nogironlikni bir umrlik tamg'a, azob va ishonchsizlik deb tushunadigan insonlarga nisbatan aytgan quyidagi fikri hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan: "Nuqsonlilik – bu ijtimoiy tushuncha bo'lib, nuqsonlarning ustiga qurilgan narsadir... Oxir-oqibat, ijtimoiy tarbiya nuqsonlikning ustidan g'alaba qozonadi. Insoniyat erta yoki kech ushbu nuqsonlikni yengadi. Eng muhimi, tibbiy-biologik jihatdan ham emas, balki ijtimoiy-pedagogik jihatdan ertaroq yenga oladi"^[6].

Ko'zi ojizlar va zaif ko'ruvchilar uchun ta'lim-tarbiya olish, hunar o'rganish tizimi qanday tashkil etilishi, ushbu faoliyat uchun qanday texnika va usullardan foydalanish kerakligi, qanday vositalar zarurligi va tashkiliy shakllari qanday bo'lishi kabi savollar tug'iladi. Bu kabi savollarga maxsus pedagogikaning mustaqil tarmog'i – tiflopedagogika javob beradi.

Tiflopedagogika (yunonchadan typhlos – ko'r va pedagogika) – bu maxsus pedagogikaning ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiquvchi sohasi.

Tiflopedagogikaning metodologik asoslarini o'qitish mazmuni va usullarini ishlab chiqish, mehnat va kasb-hunarga tayyorlash, ularni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalar turi va tuzilmasini belgilash, o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, xususiy metodikalar yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish tashkil etadi.

Tiflopedagogikaning maqsadi – ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning haqiqiy va potensial imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish va maxsus ta'lim orqali erta ijtimoiylashuviga sharoit yaratishdan iborat. Tiflopedagogikaning obyekti – ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bola shaxsidir.

Tiflopedagogikaning predmeti esa ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish, ushbu bolalarda rivojlanish va hatti-harakatlarning og'ishlarini o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan eng samarali usullar va vositalarni aniqlash jarayoni hisoblanadi^[7].

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga asosan, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; inklyuziv ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim^[8].

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ta'lim-tarbiya jarayoni umumiy o'rta ta'limning davlat standartlariga muvofiq holda belgilanadi. Bu jarayon O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, o'quv reja va dasturlar asosida, maxsus korreksion tuzatish uslublaridan foydalanilgan holda olib boriladi^[9]. Shuningdek, umumta'lim maktablarida tashkil etilgan inklyuziv sinflarga ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar ilk savodga ega bo'lganidan so'ng qabul qilinadi. Ya'ni, ular Brayl alifbosida ilk savodlarini chiqarib, "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida tayyorlov jarayonini tugatgach, inklyuziv ta'limga jalb etiladi.

Ushbu yo'nalishda, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning savodxonligini oshirish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining sifatini yaxshilash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktyabrdagi PQ-407-sonli "O'zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori^[10] qabul qilindi. Ushbu qarorda maxsus o'quv kurslarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar va voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga Brayl alifbosini o'rgatish, ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni tarbiyalash va ularga to'liq ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, hayotda zarur ko'nikmalarni rivojlantirish orqali ularni sog'lom tengdoshlari kabi jamiyat rivojiga hissa qo'shish imkoniyatlariga ega qilish zarur. Bunday imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun ushbu bolalar maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya sharoitida rivojlanishi lozim^[11]. Ta'lim-tarbiya jarayoni nafaqat ta'lim maskanlarida, balki oilada va qo'shnihilik muhitida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bu bolalarni komil inson etib tarbiyalashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

M. Rubinshteyn ta'lim maskanining bolaga ta'siri haqida shunday deydi: "Zamonaviy maktab faqatgina o'qitish, ya'ni bilim berish bilangina emas, balki muassasada ijobiy, tarbiyaviy muhitni yaratishi lozim"^[12].

Yuqorida ta'kidlanganidek, tarbiya oila va qo'shnihilik muhitida amalga oshiriladi. Har qanday o'qitish va tarbiyalash jarayonida bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhimdir.

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, imkoniyati cheklangan bolalarning mustaqil hayoti oila va qo'shnihilik munosabatlari, shuningdek, ularning qaramog'ida yashaydigan sog'lom bolalarga nisbatan erta boshlanadi. Ya'ni, bolalik hukm suradigan, yaqin qarindoshlar va qo'shnilarning e'tiborida yashash ishtiyoqi ustuvorlik qiladigan ushbu davrda, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar umumiyashaydigan maskanda muayyan qoidalar va me'yorlarga rioya etgan holda o'qish va hayotiy ko'nikmalarni egallashlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 1-2-son, 1-modda; 2009-yil, 52-son, 554-modda; 2016-yil, 52-son, 597-modda; 2017-yil, 24-son, 487-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaati. 2021-yil 3-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022-yil 19-aprel, 07/22/209/0316-son; 2023-yil 13-iyun, 06/23/92/0366-son.
4. Епифанцев Т.Б. Настольная книга дефектолога. Ростов-на-Дону: "Феникс", 2006.
5. Никитина М.И. Сурдопедагогика. Под ред. М.И.Никитиной. –М.: "Просвещение", 1989.
6. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии. Л.С. Выготский. –М.: "Просвещение", 1995.
7. Qodirova F.U. va Xusnuddinova Z.X. "Tiflopedagogika" o'quv qo'llanma. Toshkent: "ZeboPrint", 2023.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son. (<https://lex.uz/docs/-5013007>)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-407-son "O'zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. (<https://lex.uz/docs/-6248467>)
11. Епифанцев Т.Б. Настольная книга дефектолога. Ростов-на-Дону: "Феникс", 2006, 15, 26, 27, 112, 119, 120, 131-betlar.
12. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. –М.: 1999, 679-bet.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Alibek ZOKIROV

Sahifalovchi va dizayner: _____

2024. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.